



UDK: 633.174.661.162.66

**SUDON O'TI "CHIMBAYSKAYA 8" NAVINING URUG'LARINI
UNUVCHANLIGIGA EKISH SXEMASI VA BIOSTIMULYATORLAR
ME'YORINING TA'SIRI**

Mamatdurdyev U.F., Ahmedova D.B., Bobojonov J.U.,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti o'qituvchisi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti o'qituvchisi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti talabasi

Anatatsiya. Ushbu maqolada sudon o'tining chinbayskaya-8 navining qo'shimcha poyalar hosil qilishiga Geogumat biostimulyatorining gektariga 1.2 l me'yorida qo'llash boshqa me'yorlarga nisbatan ijobiy natija berganligi olib borilgan tajribada isbotlandi. Etolon qilib olingan Fertilayf biostimulyatorining gektariga 0.7 l me'yorida qo'llash tajribalarda ijobiy natija bergan.

Tayanch so'zlar: Sudon o'ti, biostimulyator, etolon, me'yor, poya.

Анатация. В данной статье проведен эксперимент, доказывающий, что применение биостимулятора «Геогумат» в норме расхода 1,2 л на гектар на образование дополнительных стеблей суданской травы сорта Чинбайская-8 дало положительный результат по сравнению с другими нормами. Применение стандартного биостимулятора Фертилайф в норме расхода 0,7 л на гектар дало положительные результаты в опытах.

Ключевые слова: суданская трава, биостимулятор, эталон, стандарт, стебель.

Abstract. In this article, it was proved in an experiment that the application of the Geogumat biostimulant at a rate of 1.2 l per hectare gave a positive result compared to another standard on the formation of additional stems of the Sudanese grass variety Chinbayskaya-8. The application of the Fertilife biostimulant at a rate of 0.7 l per hectare, taken as a standard, gave a positive result in the experiments.

Keywords: Sudanese grass, biostimulant, standard, standard, stem.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi PQ-120-son "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini



**«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**



rivojlantirish bo'yicha 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan dastur" qarorida chorva mollari bosh sonini ko'paytirish, mahsuldorligini oshirish va ozuqa ba'zasini mustahkamlashga katta e'tibor qaratilgan. Bunda ayniqsa ozuqa bazasini mustahkamlashda ozuqabop ekinlar navlarini to'g'ri tanlab ekish, birlamchi urug'chilik ishlarini talab darajasida olib borish bo'yicha alohida topshiriqlar ko'rsatib o'tilgan.

[1] Jo'xorining *S. alnum Parodi* ko'p yillik yem-xashak ekini bo'lib, qo'ng'irboshsimonlar (*Roaseae* ili *Gramineae* Juss) oilasiga va *Sorghum Pers.* avlodiga kiradi [3]. O'tsimon jo'xorining asosiy to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishi yirik va mayda chorva mollari uchun ozuqa bazasi hisoblanadi. Em-xashak jo'xori suvli yashil, vitaminlarga boy. Jo'xori donasi qattiq qobiq bilan o'ralgan, shuning uchun oziqlantirishdan oldin donni bug'lash yoki maydalash kerak. Oziqlanish ratsioni muvozanatli bo'lishi uchun o'tli jo'xori miqdori hayvonlarning umumiy iste'moli miqdorining 35% dan oshmasligi kerak, sababi don tarkibida taninning ko'pligi iste'mol qilingan ozuqaning hazm bo'lishini buzadi [2]. O'tsimon turlar o'sish bosqichida o'riladi, chorva hayvonlari uchun ajoyib yashil massa hosil qiladi. Bunday holda, o'simlik o'rilgandan keyin juda tez o'sadi. Qulay sharoitlarda, to'g'ri sug'orish va belgilangan muddatlarga rioya qilgan holda, mavsumda 3-4 tagacha o't olish mumkin [4].

O'tsimon jo'xori ozuqa maqsadlarida keng qo'llaniladi. U suvli yadroga ega va ozuqaviy moddalarga boy. Jo'xori donalari qattiq qobiqqa ega bo'lganligi sababli, chorva mollarini boqishdan oldin ularni yo'gurma kerak. Qobiqda tanin mavjud. Shuning uchun hayvonlarning ratsionida jo'xori 30% gacha cheklanishi kerak. Zamonaviy gibrid turlarda bu juda kam. Shuning uchun ular ozuqa sifatida foydalanish uchun ko'proq mos keladi. [5].

Jo'xoridan olingan yem-xashak kavsh qaytaruvchi hayvonlar mazza qiladigan qimmatli ozuqa hisoblanadi. Jo'xori qurg'oqchilikka chidamli bo'lib, yuqori harorat yoki quruq sharoitlar tufayli makkajo'xori yetishtirib bo'lmaydigan joyda o'sadi [6]. Yem-xashak sifatida ishlatiladigan jo'xori quyidagi turlarga bo'linishi mumkin: (1) don jo'xori, (2) shirin jo'xori, (3) Sudan o'ti va (4) Kolumb o'ti (*Sorghum alnum Parodi*) [7]

Tajriba o'tkazish uslubi va maydoni.

Tajribalar 2023 yilda "Nurulla Safarboy" tajriba xo'jaligida dala tajriba maydonining o'rta qumoqli, o'tloqi alluvial tuproqlari sharoitida va Xorazm viloyati KRASS Agromaslxat laboratoriyasida olib borildi.



«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



Tajriba 15 variantli 4 takrorlanishda olib borilgan bo'lib, har bir paykalning maydoni 28 m² ni tashkil qilgan. Umumiy tajribo olib borilgan maydon 0.2 ga ni tashkil qildi. Jo'xori urug'lari ekishdan oldin geogumat biostimulyatorining 1.0, 1.2, 1.4 l/t va fertilayf biostimulyatorining 0.7 l/t urug'larga ishlov berilgan. Tajribaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, jo'xorining dualet navining kuzatuv ishlari va biometerik ko'rsatgichlar olib borildi.

Geogumat biostimulyatori – bu o'simliklarning o'sishini va rivojlanishini rag'batlantirish uchun mo'ljallangan tabiiy modda. U asosan gumus va biologik faol moddalar asosida yaratilgan.

Fertilayf biostimulyatori – bu o'simliklarning o'sishini rag'batlantirish va ularning sog'lig'ini yaxshilash maqsadida ishlab chiqilgan organik biostimulyator. U o'simliklarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va tuproq unumdorligini oshirishga yordam beradi.

Tajriba natijalari. Sudan o'ti bir yillik qo'ng'irbosh o't, qurg'oqchilikka chidamli, yuqori to'yimli, chorva mollari tomonidan to'la yeyiladigan o't. Sudan o'ti ko'kat, pichan silos, senaj 3333 uchun yetishtiriladigan yem xashak ekini bo'lib bir mavsumda bir necha marta yashil massa hosili olinadi. Har o'rimdan keyin qo'shimcha poyalarning hosil bo'lishi ortib borganligi sababli boshqa yem xashak ekinlaridan farq qiladi. 70x20 ekish sxemasidagi birinchi o'rimdan keyin nazorat variantida qo'shimcha poyalar soni 5.1 donani tashkil qiladi. Fertilayf biostimulyatorini gektariga 0.71 me'yorda qo'llagan variantda qo'shimcha poyalar soni 7.2 dona bo'lib nazorat variantiga nisbatan 2.1 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.0 l me'yorida qo'llagan uchinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 6.5 donani tashkil qilgan bo'lib nazorat variantiga nisbatan 1.4 donaga ko'p, etolon variantiga nisbatan 0.7 donaga kam bo'lganligi olib borilgan fenologik kuzatuvlarda aniqlandi. Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.4 l me'yorida qo'llagan beshinchi variantda sudon o'ti o'simligida qo'shimcha poyalar soni 7.8 donani tashkil qilgan va 1, 2, 3 variantlarga nisbatan 2.7, 0.6, 1.3 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.2 l me'yorida qo'llagan to'rtinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 8.4 donani hosil qilgan bo'lib boshqa variantlarga nisbatan 3.1, 1.2, 1.9, 0.6 donaga ko'p hosil qilganligi fenologik kuzatuvlarda aniqlandi. Ikkinchi o'rimdan keyin sudon o'tining nazorat variantida qo'shimcha poyalar soni 10.5 donani tashkil qiladi. Fertilayf biostimulyatorini gektariga 0.71 me'yorda qo'llagan variantda



**«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**



qo'shimcha poyalar soni 14.4 dona bo'lib nazorat variantiga nisbatan 3.9 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.0 l me'yorida qo'llagan uchinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 13.2 donani tashkil qilgan bo'lib nazorat variantiga nisbatan 2.7 donaga ko'p, etolon variantiga nisbatan 1.2 donaga kam bo'lganligi olib borilgan fenologik kuzatuvlarda aniqlandi. Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.4 l me'yorida qo'llagan beshinchi variantda sudon o'ti o'simligida qo'shimcha poyalar soni 14.8 donani tashkil qilgan va 1, 2, 3 variantlarga nisbatan 4.3, 0.4, 1.6 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumant biostimulyato'rini gektariga 1.2 l me'yorida qo'llagan to'rtinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 15.9 donani hosil qilgan bo'lib boshqa variantlarga nisbatan 5.4, 1.5, 2.7, 1.1 donaga ko'p qo'shimcha poyalar hosil qilganligi dalada olib borilgan fenologik kuzatuvlarda aniqlandi. Uchinchi o'rimdan keyin sudon o'tining nazorat variant qo'shimcha poyalar soni 17.3 donani tashkil qiladi. Fertilyf biostimulyatorini gektariga 0.7l me'yorda qo'llagan variantda qo'shimcha poyalar soni 19.2 dona bo'lib nazorat variantiga nisbatan 1.9 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.0 l me'yorida qo'llagan uchinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 18.4 donani tashkil qilgan va nazorat variantiga nisbatan 1.1 donaga ko'p, etolon variantiga nisbatan 0.8 donaga kam bo'lganligi olib borilgan fenologik kuzatuvlarda aniqlandi.

Sudon o'tining har o'rimdan keyin qo'shimcha poyalarning hosil bo'lishiga ekish sxemasi va biostimulyatorlar me'yoring ta'siri

1-jadval

	Ekish sxemasi	Biostimulyator me'yori	Sudon o'tining har o'rimdan keyin qo'shimcha poyalarning hosil bo'lishi.		
			1- O'rimdan keyin	2- O'rimdan keyin	3- O'rimdan keyin
1	70x20	Nazorat	5.1	10.5	17.3
2		Fertilyf-0.7	7.2	14.4	19.2
3		Geogumat-1.0	6.5	13.2	18.4
4		Geogumat-1.2	8.4	15.9	21.8
5		Geogumat-1.4	7.8	14.8	20.5
6	70x25	Nazorat	5.4	11.2	19.3
7		Fertilyf-0.7	7.8	14.9	23.7
8		Geogumat-1.0	6.3	12.7	21.4
9		Geogumat-1.2	8.8	16.8	24.5



«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



10		Geogumat-1.4	8.1	15.1	23.8
11	70x30	Nazorat	5.5	11.6	19.5
12		Fertilayf-0.7	7.4	14.4	21.3
13		Geogumat-1.0	6.9	13.2	20.7
14		Geogumat-1.2	8.7	16.6	25.8
15		Geogumat-1.4	8.1	15.3	23.5

Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.4 l me'yorida qo'llagan beshinchi variantda sudon o'ti o'simligida qo'shimcha poyalar soni 20.5 donani tashkil qilgan va 1, 2, 3 variantlarga nisbatan 3.2, 1.3, 2.1 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumant biostimulyato'rini gektariga 1.2 l me'yorida qo'llagan to'rtinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 21.8 donani hosil qilgan bo'lib boshqa variantlarga nisbatan 4.5, 2.6, 3.4, 1.3 donaga ko'p hosil qilganligi fenologik kuzatuvlarda aniqlandi. 70x25 ekish sxemasidagi birinchi o'rimdan keyin nazorat variantida qo'shimcha poyalar soni 5.4 donani tashkil qiladi. Fertilayf biostimulyatorini gektariga 0.7l me'yorda qo'llagan variantda qo'shimcha poyalar soni 7.8 dona bo'lib nazorat variantiga nisbatan 2.4 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.0 l me'yorida qo'llagan sakkizinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 6.3 donani tashkil qilgan bo'lib nazorat variantiga nisbatan 0.9 donaga ko'p, etolon variantiga nisbatan 1.5 donaga kam bo'lganligi olib borilgan fenologik kuzatuvlarda aniqlandi. Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.4 l me'yorida qo'llagan o'ninchi variantda sudon o'ti o'simligida qo'shimcha poyalar soni 8.1 donani tashkil qilgan va 6,7,8 variantlarga nisbatan 2.7, 0.3, 1.8 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumant biostimulyato'rini gektariga 1.2l me'yorida qo'llagan to'qqizinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 8.8 donani hosil qilgan bo'lib boshqa variantlarga nisbatan 3.4, 1.0,2.5, 0.7 donaga ko'p hosil qilganligi fenologik kuzatuvlarda aniqlandi. Ikkinchi o'rimdan keyin sudon o'tining nazorat variantida qo'shimcha poyalar soni 11.2 donani tashkil qiladi. Fertilayf biostimulyatorini gektariga 0.7l me'yorda qo'llagan etolon variantda qo'shimcha poyalar soni 14.9 dona bo'lib nazorat variantiga nisbatan 3.7 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.0 l me'yorida qo'llagan sakkizinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 12.7 donani tashkil qilgan bo'lib nazorat variantiga nisbatan 1.5 donaga ko'p, etolon variantiga nisbatan 2.2 donaga kam bo'lganligi olib borilgan fenologik kuzatuvlarda aniqlandi. Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.4 l me'yorida qo'llagan o'ninchi variantda sudon o'ti o'simligida qo'shimcha poyalar soni



**«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**



15.1 donani tashkil qilgan va variantlarga nisbatan 3.9, 0.2, 2.3 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumant biostimulyato'rini gektariga 1.2 l me'yorida qo'llagan to'qqizinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 16.8 donani hosil qilgan bo'lib boshqa variantlarga nisbatan 5.6, 1.9, 4.1, 1.7 donaga ko'p qo'shimcha poyalar hosil qilganligi dalada olib borilgan fenologik kuzatuvlarda aniqlandi.

Uchinchi o'rimdan keyin sudon o'tining nazorat variant qo'shimcha poyalar soni 19.3 donani tashkil qiladi. Fertilyf biostimulyatorini gektariga 0.7l me'yorda qo'llagan variantda qo'shimcha poyalar soni 23,7 dona bo'lib nazorat variantiga nisbatan 4,4 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.0 l me'yorida qo'llagan sakkizinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 21.4 donani tashkil qilgan va nazorat variantiga nisbatan 2.1 donaga ko'p, etolon variantiga nisbatan 2.3 donaga kam bo'lganligi olib borilgan fenologik kuzatuvlarda aniqlandi. Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.4 l me'yorida qo'llagan o'ninchi variantda sudon o'ti o'simligida qo'shimcha poyalar soni 23.8 donani tashkil qilgan va 6,7,8 variantlarga nisbatan 4.5, 0.1, 2.4 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumant biostimulyato'rini gektariga 1.2 l me'yorida qo'llagan to'qqizinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 24.5 donani hosil qilgan bo'lib boshqa variantlarga nisbatan 5.2, 1.8, 3.1, 0.7 donaga ko'p hosil qilganligi fenologik kuzatuvlarda aniqlandi.

70x30 ekish sxemasidagi birinchi o'rimdan keyin nazorat variantida qo'shimcha poyalar soni 5.5 donani tashkil qiladi. Fertilyf biostimulyatorini gektariga 0.7l me'yorda qo'llagan variantda qo'shimcha poyalar soni 7.4 dona bo'lib nazorat variantiga nisbatan 1.9 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.0 l me'yorida qo'llagan o'n uchinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 6.9 donani tashkil qilgan bo'lib nazorat variantiga nisbatan 1.4 donaga ko'p, etolon variantiga nisbatan 0.5 donaga kam bo'lganligi olib borilgan fenologik kuzatuvlarda aniqlandi. Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.4 l me'yorida qo'llagan o'n beshinchi variantda sudon o'ti o'simligida qo'shimcha poyalar soni 8.1 donani tashkil qilgan va 1, 2, 3 variantlarga nisbatan 2.6, 0.7, 1.2 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumant biostimulyato'rini gektariga 1.2 l me'yorida qo'llagan o'n to'rtinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 8.7 donani hosil qilgan bo'lib boshqa variantlarga nisbatan 3.2, 1.3, 1.8, 0.6 donaga ko'p hosil qilganligi fenologik kuzatuvlarda aniqlandi. Ikkinchi o'rimdan keyin sudon o'tining nazorat variantida qo'shimcha poyalar soni 11.6 donani tashkil qiladi. Fertilyf biostimulyatorini gektariga 0.7l me'yorda qo'llagan




«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



variantda qo'shimcha poyalar soni 14.4 dona bo'lib nazorat variantiga nisbatan 2.8 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumat biostimulyatorini gektariga 1.0 l me'yorida qo'llagan o'n uchinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 13.2 donani tashkil qilgan bo'lib nazorat variantiga nisbatan 1.6 donaga ko'p, etolon variantiga nisbatan 1.2 donaga kam bo'lganligi olib borilgan fenologik kuzatuvlarda aniqlandi. Geogumat biostimulyatorini gektariga 1.4 l me'yorida qo'llagan o'n beshinchi variantda sudon o'ti o'simligida qo'shimcha poyalar soni 15.3 donani tashkil qilgan va o'n bir, o'n ikkiva o'n uchinchi variantlarga nisbatan 3.7, 2.2, 2.1 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumat biostimulyatorini gektariga 1.2 l me'yorida qo'llagan o'n to'rtinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 16.6 donani hosil qilgan bo'lib boshqa variantlarga nisbatan 5.0, 2.2, 3.4, 1.3 donaga ko'p qo'shimcha poyalar hosil qilganligi dalada olib borilgan fenologik kuzatuvlarda aniqlandi. Uchinchi o'rimdan keyin sudon o'tining nazorat variant qo'shimcha poyalar soni 19.5 donani tashkil qiladi. Geogumat biostimulyatorini gektariga 1.4 l me'yorida qo'llagan o'n beshinchi variantda sudon o'ti o'simligida qo'shimcha poyalar soni 15.3 donani tashkil qilgan va o'n bir, o'n ikkiva o'n uchinchi variantlarga nisbatan 3.7, 2.2, 2.1 donaga ko'p hosil qilgan.

Sudon o'tining har o'rimdan keyin qo'shimcha poyalarning hosil bo'lishiga ekish sxemasi va biostimulyatorlar me'yoring ta'siri

1- grafik





**«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**



Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.2 l me'yorida qo'llagan o'n to'rtinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 16.6 donani hosil qilgan bo'lib boshqa variantlarga nisbatan 5.0, 2.2, 3.4, 1.3 donaga ko'p qo'shimcha poyalar hosil qilganligi dalada olib borilgan fenologik kuzatuvlarda aniqlandi. Uchinchi o'rimdan keyin sudon o'tining nazorat variant qo'shimcha poyalar soni 19.5 donani tashkil qiladi. Fertilayf biostimulyatorini gektariga 0.7l me'yorda qo'llagan variantda qo'shimcha poyalar soni 21.3 dona bo'lib nazorat variantiga nisbatan 1.8 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.0 l me'yorida qo'llagan o'n uchinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 20.7 donani tashkil qilgan va nazorat variantiga nisbatan 1.2 donaga ko'p, etolon variantiga nisbatan 0.6 donaga kam bo'lganligi olib borilgan fenologik kuzatuvlarda aniqlandi

Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.4 l me'yorida qo'llagan o'n beshinchi variantda sudon o'ti o'simligida qo'shimcha poyalar soni 23.5 donani tashkil qilgan va 11, 12, 13 variantlarga nisbatan 4.0, 2.2, 2.8 donaga ko'p hosil qilgan. Geogumant biostimulyatorini gektariga 1.2 l me'yorida qo'llagan o'n to'rtinchi variantda qo'shimcha poyalar soni 25.8 donani hosil qilgan bo'lib bosh variantlarga nisbatan 6.3, 4.5, 5.1, 2.3 donaga ko'p hosil qilganligi fenologik kuzatuvlarda aniqlandi.

Xulosa

Tajriba dalasida ekilgan sudon o'tining yashil massa hosildorligiga ekish sxemasi va biostimulyatorlar me'yoring tasiri o'rganilgan bo'lib asosan ekish sxemalaridan 70x25 ekish sxemasi va Geogumant biostimulyatorini gektariga-1.2 l me'yorda qo'llagan variantlarda boshqa ekish sxemalariga va biostimulyatorning me'yorlariga nisbatan tuplanganligi va ko'chat sonining ko'pligi olib borilgan dala tajribasida aniqlandi va isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi PQ-120-son "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan dastur" qarori. Lex.uz
2. Тохтаров, В. П. Сорго: предшественники, удобрение, обработка почвы // Кукуруза и сорго. – 2004. – № 5. – С.22-24.
3. Шайтанов, О.Л. Новые сорта сорговых культур в кормовой базе Та-тарстана Нива Татарстана. 2012. - № 1. - С. 25.



**«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**



4. Белуиченко И. С. Злаковые кормовые растения тропического пояса. Част 2. - М.: УДН, 1970. - С. 60-69.
5. Головин В. П. Перспективы, методы и результаты селекции новых засухоустойчивых кормовых культур //Материалы ИИИ й Международной конференции: Селекция, технология возделывания и переработки нетрадиционных растений. - Симферопол, 1994. - С. 27-28.
6. Pritchard A. J. Inheritance pattern in hybrids between *S. alnum* and perennial sweet Sudan grass. *Austr. J. Agri. Res.* - 1964. - 16 (4). - P. 525-532.
7. Многолетнее сорго Yedenbaev D., Azizov K.K., Boboev F.G., Elmurodov A.B. X Vserossiyskaya konferensiya molodykh uchenykh i spetsialistov, VNIIMK, 2019 g.str.62-65.

